FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 23 - sentabr 405-11-169-Q/22 Farg‘ona shahar hokimligi

Yo‘lbelgisi o‘rnatish haqida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil yetish qoidalari” hamda 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish bo‘yicha Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2022-yil 28-iyul kungi 33/636-sonliva 2022-yil9-sentyabr kungi 33/692-sonli xatlari,shuningdek Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining xulosalarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5,6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2022-yil 28-iyul kungi 33/636-sonli va 2022 yil 9-sentyabr kungi 33/692-sonli murojaalariinobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining xulosalari asos uchun qabul qilinsin.

3.Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini hamda shahar ichki yo‘l qoplamalarining buzilishini oldini olish maqsadida:

- Qirlola tor ko‘chalariga 3.4 “Yuk avtomobillarining xarakatlanishi

taqiqlangan” va 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan”;

- Moturudiy va A.Navoiy ko‘chasi kesishgan chorraxasidan (yo‘lning chap tomoniga) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan”;

- Quva va Yorug‘lik ko‘chasi kesishgan chorraxadan 8-mart kesishgan chorraxasigacha 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan”;

- Quva va Yorug‘lik ko‘chasi kesishgan chorraxadan Yorug‘lik va Nuroniylar ko‘chasi kesishgan chorraxasigacha 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan”;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li va Oybek ko‘chasi kesishgan chorraxasidan A.Navoiy ko‘chasi bilan kesishgan chorraxasigacha (yo‘lning o‘n tomoniga)

3,5 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtomobillarin to‘xtash ta’qiqlash

3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 7.4.1 “Transport vositalrining turi” yo‘l belgilari o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

4.Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi hamda Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan birgalikda Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatilishini tashkil etish hamda mazkur hududlarda yuk avtomobillari harakat cheklanishini nazorat qilib borish vazifasi yuklansin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash shahar hokimining o‘rinbosari M.Axmadjon va Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi v.v.b E.Xaydamatov zimmalariga topshirilsin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**